Abstract: The article analyzes the essence and nature of vulnerable employment, as well as its impact on the labor market and the living standards of the population. Its main characteristics are highlighted – the absence of a formal labor contract, exclusion from the social protection system, and restrictions on labor rights. In Uzbekistan, the number of self-employed is rapidly increasing, and they constitute the main share of the vulnerable category. Urbanization and international experience are presented as important factors in reducing this indicator. The authors provide practical recommendations for transitioning to productive employment through professional retraining, strengthening social protection mechanisms, formalizing the informal sector, and utilizing digital platforms to improve the welfare of the population.

Key words: vulnerable employment, productive employment, self-employment, informal sector, social protection, poverty, human capital.

Аннотация: В статье проанализированы сущность и содержание уязвимой занятости, а также её влияние на рынок труда и уровень жизни населения. Отмечены её основные характеристики – отсутствие официального трудового договора, исключённость из системы социальной защиты и ограниченность трудовых прав. В Узбекистане число самозанятых быстро растёт, и они составляют основную часть уязвимой категории. Урбанизация и международный опыт рассматриваются как важные факторы сокращения данного показателя. Авторы предлагают практические рекомендации по переходу к продуктивной занятости за счёт профессиональной переподготовки, усиления механизмов социальной защиты, легализации неформального сектора и использования цифровых платформ для повышения благосостояния населения.

Ключевые слова: уязвимая занятость, продуктивная занятость, самозанятость, неформальный сектор, социальная защита, бедность, человеческий капитал.

KIRISH

Zaif bandlik — bu mehnat bozorida eng xavfli va beqaror ish shakllarini qamrab oluvchi ko'rsatkich hisoblanadi. Xalqaro Mehnat Tashkiloti ta'rifiga ko'ra, zaif bandlik deganda asosan o'zini o'zi band qilganlar va oilaviy yordamchi ishchilar tushuniladi. Bu toifalarning umumiy jihati — ularning mehnat faoliyati barqaror huquqiy va ijtimoiy kafolatlar bilan ta'minlanmagan bo'ladi.

XMT izohlashicha, zaif bandlik subyektlariga quyidagi tashhisni qo'ygan: (1) rasmiy mehnat shartnomasiga ega emas; (2) ijtimoiy sug'urta va pensiya tizimi bilan to'liq qamrab olinmagan; (3) mehnat sharoitlari va ish vaqti ustidan yetarli nazorat yo'q; (4) ishdan bo'shatilganda yoki kasallanganda himoyasiz holda qoladi.

Shuning uchun zaif bandlik ko'rsatkichi mehnat bozorida barqarorlik darajasini va ijtimoiy himoyaning samaradorligini baholashda muhim indikator sifatida qo'llaniladi. Bu ko'rsatkich qanchalik yuqori bo'lsa, mamlakatda kambag'allik, tengsizlik va norasmiy sektorda ishlash xavfi shunchalik kuchli bo'ladi.

Zero, "O'zbekiston-2030" strategiyasida 28-maqсад aynan aholini daromadli mehnat bilan band qilish, ijtimoiy sug'urta tizimini takomillashtirish belgilangan bo'lib, unda mehnatga layoqatli aholini, shu jumladan yoshlar va nogironligi bo'lgan shaxslarni barqaror va samarali bandligini ta'minlash orqali ishsizlik darajasini 7,0%gacha tushirish asosiy vazifalardan biri sifatida qayd etilgan¹.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida"ga Farmoni, 11.09.2023 yildagi PF-158-son.

Ma'lumki, mehnat bozorida zaif bandlik muammosi juda dolzarb hisoblanadi. Mamlakatda mehnatga layoqatli aholining asosiy qismi mehnat faoliyati bilan shug'ullansa-da, ularning bir qismi rasmiy mehnat shartnomasi va ijtimoiy kafolatlardan holi holda ishlaydi. Xususan, qishloq xo'jaligida, kichik xizmat ko'rsatish sohalarida, qurilishda va bozorlarda mehnat qilayotgan ishchilar ko'pincha norasmiy tarzda faoliyat yuritishadi. Bu esa ularning mehnat huquqlari va ijtimoiy himoya tizimi bilan qamrab olinishiga salbiy ta'sir qiladi.

Respublikada “o'zini o'zi band qilganlar” soni tez sur'atlar bilan o'smoqda. 2023 yil ma'lumotlariga ko'ra, mehnat bozorida o'zini o'zi bandlar ulushi qariyb 50,0% atrofida tashkil etgan. Bu toifa mehnat bozorida eng ko'p zaif bandlikka duchor bo'ladi, chunki ularning ish faoliyati ko'pincha rasmiy hisobga olinmaydi, ijtimoiy sug'urtaga majburiy tartibda qo'shilmaydi va ish kafolatlari kam.

Bundan tashqari, aholining ma'lum qismini tashkil etuvchi yoshlar va ayollar ko'p hollarda rasmiy ish o'rinlariga kirishda qiyinchiliklarga duch keladi. Natijada ular norasmiy sektordagi vaqtinchalik va beqaror ishlarni tanlashga majbur bo'ladi. Bu esa ish bilan ta'minlangan bo'lsa-da, kambag'allikdan chiqib ketish imkonini bermaydi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Zaif bandlik — o'zini o'zi band qilganlar va oilaviy yordamchi ishchilar yig'indisi bo'lib, ularning rasmiy mehnat shartnomasiga ega bo'lish ehtimoli past. Shu sababli, munosib mehnat sharoitlari, ijtimoiy himoya va kasaba uyushmalari orqali huquqlarni himoya qilish imkoniyati cheklangan. Bu turdagi bandlik kam daromad, past samaradorlik va og'ir mehnat sharoitlari bilan tavsiflanib, ishchi-xodimlarning asosiy huquqlari salbiy ta'sir qiladi.

Zaif bandlik Milliy taraqqiyot maqsadlari doirasida ishlab chiqilgan to'rtta asosiy ko'rsatkichdan biri sifatida qo'llanilgan bo'lib, u “barcha uchun to'laqonli va unumli bandlik hamda munosib mehnatni ta'minlash, jumladan ayollar va yoshlar uchun ham” yo'nalishidagi taraqqiyotni baholash va monitoring qilish uchun xizmat qilgan.

XMTning ta'rifi mehnat bilan bandlik maqomiga asoslanadi va o'zini o'zi band qilganlar hamda oilaviy yordamchi ishchilar toifasini zaif bandlikka kiritadi [2].

XMT hisobotlarida ish bilan zaif bandlar, odatda, rasmiy mehnat shartnomalariga ega bo'lmagan, imtiyozlar yoki ijtimoiy himoya dasturlaridan foydalana olmaydigan va iqtisodiy sikllar ta'siriga ko'proq duch keladigan shaxslar sifatida gavdalanadi [3].

T.Gindling va D.Newhouse ishchi xususiyatlari bandlik holatiga qarab qanday farq qilishini tahlil qilgandan so'ng, u qishloq xo'jaligidan tashqari o'zini o'zi band qilgan ishchilarni “muvaqqiyatli” yoki “muvaqqiyatsiz” tadbirkorlar sifatida tasniflashdi. Bu tasnif ikki xil muvaqqiyat mezoniga asoslandi: ishchi ish beruvchimi yoki yo'qmi hamda ishchi kambag'al bo'lmagan xonadonda yashaydimi yoki yo'qmi? Bunda ish o'rinlari aniq ierarxiyaga ega ekanligi aniqlangan bo'lib, xonadon daromadi va ishchi ta'lim darajasi eng yuqori bo'lganlar ish beruvchilar, undan keyin yollanma ishchilar, qishloq xo'jaligidan tashqari o'z hisobidan ishlovchilar, qishloq xo'jaligidan tashqari haq to'lanmaydigan oila a'zolari va nihoyat qishloq xo'jaligi ishchilari egallagan. Shuningdek, o'zini o'zi band qilganlarning sezilarli qismi kambag'al bo'lmagan xonadonlarda yashashi aniqlangan. Bu esa ularning daromadlari ko'pincha xonadonning qo'shimcha daromad manbai ekanini ko'rsatgan [4].

M. Chen, X.Huang, J.Cheng, Z.Tang, G.Huang tadqiqotlarida urbanizatsiya va zaif bandlikning makon-yo'nalishli evolyusiyasi hamda ma'lumotlar korrelyatsiyasi miqdoriy tahlil qilishgan va urbanizatsiyaning zaif bandlikdagi rolini aniqlash maqsadida 1991–2019 yillar davomidagi 163 ta davlatning tarixiy ma'lumotlari asosida nazariy gipoteza sinovdan o'tkazishgan. Tadqiqot natijalari urbanizatsiya darajasi bilan zaif bandlik darajasi o'rtasida yuqori korrelyatsiya mavjud va bunga G7 va BRICs davlatlari misol bo'la olgan. Urbanizatsiyaning baholangan ko'rsatkichi manfiy va statistik jihatdan ahamiyatli regressiya koeffitsientini (–0.168) bergan, bu esa urbanizatsiya zaif bandlikka manfiy ta'sir ko'rsatishini anglatadi. Agar urbanizatsiya darajasi 1,0% ga oshsa, zaif bandlik darajasi 0,168% ga kamayishini ko'rsatgan. Bu holat urbanizatsiya tufayli qishloqdan shaharga sektor almashinuvi va mehnat munosabatlaridagi o'zgarishlar bilan izohlanishi aytiladi.

Shuningdek, daromad guruhlari va aholi soniga ko'ra turlicha bo'lgan davlatlar urbanizatsiya o'sishiga turlicha reaksiya bildirgan. Yuqori daromadli davlatlarda zaif bandlik urbanizatsiya o'sishidan ko'proq ta'sirlangan, shuningdek, aholisi ko'p davlatlar ham unga nisbatan sezgirroq bo'lgan. Ushbu natijalar urbanizatsiyaning bandlik va munosib mehnatni rivojlantirishda qanday ahamiyatga egaligini ko'rsatmoqda [5].

S.Yerrabati tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, rivojlanayotgan mamlakatlardagi kambag'allarning katta qismi zaif bandlikni afzal bilishgan. Muqobil daromad manbalari mavjud bo'lmagan sharoitda, kambag'allarga daromad keltiruvchi imkoniyatlarni taqdim etish orqali zaif bandlik ularning uy xo'jaligi daromadiga ta'sir ko'rsatadi va shu yo'l bilan kambag'allikni qisqartiradi [6].

Tadqiqotchi M.Binder o'zini o'zi band qilganlar uchun pastroq farovonlikka olib kelishi mumkin bo'lgan yo'nalish - ya'ni ularning faoliyatiga oid xavotirlarini tahlil qildi. Germaniya panel ma'lumotlari (1984-2020)

Manba: <https://lex.uz/docs/6600413>

asosida ikki tomonlama doimiy ta'sirlar baholovchisi orqali olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, o'zini o'zi band qilish hayotdan qoniqishga umumiy ta'sir ko'rsatmaydi. Tahlil o'zini o'zi band qilish va hayotdan qoniqish o'rtasidagi munosabatni asosan moliyaviy holat haqidagi xavotirlar orqali izohlagan. O'zini o'zi band qilganlar moliyaviy holati haqida ko'proq xavotirlana boshlagan sari, ularning hayotdan qoniqishi pasayishi ko'rsatilgan. Faqatgina moliyaviy holat haqida umuman xavotirlanmagan taqdirdagina o'zini o'zi band qilish hayotdan qoniqishga ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniqlangan [7].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda bir qator onlayn ma'lumotlar bazalaridagi ilmiy manbalarda o'z aksini topgan zaif bandlik va uning o'ziga xos xususiyatlariiga taaluqli empirik va konseptual tadqiqotlar o'rganildi va ulardagi ilmiy yondoshuvlar tizimlashtirildi. Shuningdek, tadqiqot ishida tizimli tahlil, analiz va sintez, qiyosiy tahlil, monografik tahlil va guruhlash usullari qo'llanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zini o'zi band qilish aholini tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb etish va qonuniy mehnat qilish uchun qo'shimcha shart-sharoitlar yaratish maqsadida yaratilgan. Ma'lumki, o'zini o'zi band qilgan shaxs – o'zi uchun ishlaydigan fuqarolar. Ular xodim yollash huquqiga ega emas.

2025-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, O'zbekistonda o'zini o'zi band qilganlar soni sezilarli darajada oshgan. Agar 2024-yil boshida 2,53 mln nafar fuqaro ro'yxatdan o'tgan bo'lsa, bir yil davomida bu ko'rsatkich 4,47 mln. nafarga yetgan. Bu o'sish 76,5% ni tashkil etadi. Bunday yuqori o'sish o'zini o'zi band qilishning mehnat bozorida muhim fenomen sifatida shakllanayotganini va rasmiy sektordan tashqari mehnat faoliyatiga davlatning qonuniy yo'l ochib berganini ko'rsatadi.


Shuningdek, gender kesimida erkaklar ulushi 58,0%, ayollar esa 42,0% ni tashkil etib, ushbu toifada ayollar ishtiroki ham sezilarli darajada yuqori ekanini namoyon qiladi.

Sohalar kesimida eng yuqori o'sish maishiy xizmatlar sohasida kuzatilgan. 2024-yildagi 936 mingdan 2025-yil boshida 1,91 mln nafarga ortib, 104,3% o'sish qayd etildi. Shuningdek, xalq iste'moli mollari ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish yo'nalishida ham deyarli ikki barobar o'sish (94,6%) qayd etilgan.

O'zini o'zi band qilganlar soni axborot-kommunikatsiya xizmatlarida nisbatan kichik ulushga ega bo'lsa-da, o'sish sur'ati 87,0% bo'lib, zamonaviy raqamli iqtisodiyotda bu sohaning jadal rivojlanayotganini ko'rsatadi. Qishloq xo'jaligi xizmatlari (53,6% o'sish) va sanoat yo'nalishidagi xizmatlar (49,6% o'sish) esa an'anaviy tarmoqlarda ham o'zini o'zi band qilish imkoniyatlari kengayib borayotganini namoyon qilgan.

Soliq qo'mitasi ma'lumotlarga ko'ra, yengil avtotransportda yo'lovchi tashish bilan shug'ullanuvchi 707,3 ming nafar shaxs ro'yxatdan o'tgan, shundan 450,5 ming nafar 2024-yilda qo'shilgan. Bu ko'rsatkich o'zini o'zi band qilganlar umumiy sonining salmoqli qismini tashkil etadi.

Taksi xizmatlarining rivojlanishi shaharlarda transport talabining ortib borayotganini va aholi uchun qo'shimcha ish imkoniyatlari yaratilayotganini ko'rsatadi. Biroq, ushbu sohada mehnat sharoitlari, daromad barqarorligi va ijtimoiy himoya bilan bog'liq muammolar dolzarb bo'lib qolmoqda.



1-rasm. O'zini o'zi band qilgan shaxslar soni dinamikasi, ming kishi (2025-yil 1-yanvar holati)

2025-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, o‘zini o‘zi band qilganlar soni hududlar kesimida bir xil taqsimotga ega emas. Samarqand viloyati (508,1 ming) yetakchi o‘rinni egallasa, undan keyin Toshkent viloyati (447,2 ming) va Qashqadaryo viloyati (442,5 ming) joylashgan. Shundan keyingi o‘rinlarda Namangan (398,6 ming), Farg‘ona (397,8 ming) va Andijon (394,9 ming) viloyatlari turibdi. Bu hududlarda aholi zichligi yuqori, mehnat resurslari ko‘p va xizmat ko‘rsatish sohasi rivojlangan. Shu bilan birga, ayrim hududlarda ko‘rsatkichlar ancha past: Sirdaryo (117,8 ming), Navoiy (127,7 ming) va Jizzax (190,3 ming) viloyatlarida o‘zini o‘zi band qilganlar soni nisbatan kam. Bu hududlarda iqtisodiy imkoniyatlar va aholi soni pastligi bilan izohlanishi mumkin.

Mamlakat mehnat bozoridagi ikkita asosiy holatdan norasmiy bandlik yuzaga keladi.

Birinchidan, rasmiy mehnat bozorida mehnat daromadlariga belgilangan turli ko‘rinishdagi soliq stavkalari xodimlar mehnat daromadiga ta‘sirining sezilarli darajada ortib borishi natijasida vujudga keladigan mehnat faoliyatidagi samarasizligi bunga asosiy sabab qilib ko‘rsatiladi.

Ushbu masala yechimi ma‘lum bir kasb yoki lavozim uchun shaxsning norasmiy sektordagi mehnat daromadi xuddi shu kasb yoki lavozim uchun rasmiy sektordagi mehnat daromadidan yuqori bo‘lishini ta‘minlashga asoslanadi. Aks holda, mehnat daromadidan va ijtimoiy soliqlar to‘lashdan qochish mexanizmi faollashadi.


Ikkinchidan esa, rasmiy ish joylarining tanqisligi yoki ularda taklif etilayotgan ish haqi miqdorining belgilangan mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdoridan sezilarli farq qilmasligi ishlashni istaganlarning rasmiy mehnat bozoridan tashqarida daromad olish imkoniyatlarini izlashga olib keladi. Bu mehnat bozorida keskinlikni keltirib chiqarishi mumkin.

Ushbu masala yechimi esa, yangi ish o‘rinlarini yaratish, kasbga o‘qitish, malaka oshirish va qayta tayyorlov tizimini faollashtirish hamda tashqi mehnat migratsiyasini rag‘batlantirishga asoslanadi.

Yuqoridagi mehnat bozorining ikki asosiy masalasini yechimi sifatida yangi strategiya – o‘zini o‘zi band qilishni tartibga solish va rag‘batlantirish muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda.

Ma‘lumki, 2020-yil 1-iyulgacha o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar shug‘ullanishi mumkin bo‘lgan faoliyat turlari 24 tani tashkil etdi va ush faoliyat turi bilan shug‘ullanayotgan shaxslar amaldagi bazaviy hisoblash miqdorining 4,5 barobar miqdorida ijtimoiy soliq to‘landi.

2020-yil 1-iyuldan o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar shug‘ullanishi mumkin bo‘lgan faoliyat turlariga 43 ta faoliyat qo‘shildi va ular soni 67 tani tashkil etdi. Shu bilan birga amaldagi Bazaviy hisoblash miqdorining 50%i miqdorida ijtimoiy soliq to‘lash joriy etildi. Ijtimoiy soliq miqdori qariyb 10 barobarga kamaytirildi.



2-rasm. O‘zbekiston Respublikasida o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar shug‘ullanishi mumkin bo‘lgan faoliyat turlari soni (birlik)²


O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-maydagi “Sog‘liqni saqlash tizimida olib borilayotgan islohotlarni izchil davom ettirish va tibbiyot xodimlarining salohiyatini oshirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish to‘g‘risida”gi PF-6221-sonli farmoni asosida 2021-yil 1-iyuldan boshlab hamshiralik ishi (ro‘yxatdagi 68-faoliyat turi) o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar shug‘ullanishi mumkin bo‘lgan faoliyat (ishlar, xizmatlar) turlari ro‘yxatiga kiritildi. Bunda to‘lanadigan ijtimoiy soliq 373650 so‘m etib belgilangan edi (2-rasm).

2 Rasmiy ma‘lumotlar asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

2022-yilning 1-noyabr sanasidan o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar shug‘ullanishi mumkin bo‘lgan faoliyat turlari 10 taga oshib, ular 78 taga yetdi. 2022-yilda o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar shug‘ullanishi mumkin bo‘lgan faoliyat turlari tarkibida o‘zgarishlar bo‘ldi, yangilari qo‘shildi va ular soni 82 taga yetkazildi.

Ma‘lumot o‘rnida shuni ta‘kidlab o‘tish joizki, 2020 — 2023 yillar davomida 2,5 mln.dan ziyod fuqaro (shundan 1,1 mlni ayollar) o‘zini o‘zi band qilgan shaxs sifatida ro‘yxatga olingan. O‘zini o‘zi band qilgan shaxslarning “45,0%i maishiy xizmat ko‘rsatish, 19,0%i qishloq xo‘jaligi, 14,0%i ijtimoiy yo‘nalish, 10,0%i xalq iste‘moli mollari ishlab chiqarish va boshqa sohalarda ro‘yxatga olingan. Jumladan, o‘zini o‘zi band qilgan ayollarning 42 foizi maishiy xizmat ko‘rsatish, 26,0%i ijtimoiy yo‘nalish, 15 foizi qishloq xo‘jaligi, 14,0%i xalq iste‘moli mollari ishlab chiqarish, 2 foizi AKT, 1 foizi sanoat yo‘nalishida ro‘yxatga olingan” [8].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-noyabrdagi “Kichik va o‘rta biznesni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-193-sonli farmoni asosida 19 ta faoliyat turi qo‘shildi va amalda 2024-yil 1-martdan kuchga kirdi.



3-rasm. O‘zbekiston Respublikasida o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar soni dinamikasi (kishi)³

O‘zini o‘zi band qilgan shaxs sifatida mehnat faoliyatini amalga oshirish davri pensiya olish huquqiga ega bo‘lingan paytdan e‘tiboran yoshga doir pensiyani hisoblab chiqarish uchun qabul qilinadigan ish stajiga qo‘shib hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasida o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar soni dinamikasi so‘nggi yillarda keskin o‘shish tendensiyasiga ega. 2024-yil 1-mart holatiga ko‘ra, mamlakatda 2633471 kishi o‘zini o‘zi band qilgan. Buni 2023-yil noyabr oyida o‘zini o‘zi band qilishda faoliyat turlari ro‘yxatini kengayishi bilan izohlash mumkin. 2025-yil 1-yanvar holatida o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar soni 4468800 kishini tashkil etgan (3-rasm).

O‘zbekistonda 2025-yil boshida “Aholini daromadli mehnat bilan ta‘minlash” dasturi qabul qilingan edi. Ushbu dastur ijrosi doirasida 2025-yil davomida 5,2 million kishi ish bilan band qilinishi ko‘zda tutilgan [9].

O‘zbekiston Respublikasi hududida “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonuni 35-37-moddalari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 8-iyundagi PQ-4742-son qarori hamda Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 23-dekabrdagi 806-son qarori o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar faoliyatini tartibga solishnina asosiy huquqiy asoslari hisoblanadi.

Ma‘lumki, o‘zini o‘zi band qilgan shaxs “soliq.uz” mobil ilovasi yoki soliq to‘lovchining shaxsiy kabineti orqali yoxud davlat soliq xizmati organiga shaxsan kelib ro‘yxatdan o‘tish mumkin.

O‘zini o‘zi band qilgan shaxs sifatida ro‘yxatga olish davri, mehnat faoliyati bu davrda o‘zini o‘zi band qilish tartibida amalda bajarilganligi yoki bajarilmaganligidan qat‘i nazar, pensiyani tayinlash uchun mehnat stajiga qo‘shib hisoblanadi.

Mahalliy mehnat organlari o‘zini o‘zi band qilgan shaxslarga imtiyozli mikrokreditlar ajratish uchun tijorat banklariga tavsiyalar beradi [10].

Ma‘lumki, aholini tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb qilish va qonuniy mehnat faoliyati bilan shug‘ullanishga qo‘shimcha shart-sharoit yaratish maqsadida o‘zini o‘zi band qilgan shaxslarga faoliyat turlari kengaytirildi. Faoliyat turlari kengaymoqda, biroq o‘zini o‘zi band qilish faoliyatining barcha turlari zaifligicha qolmasligi, uni unumli bandlikka transformatsiya qilish zarurati yuzaga kelmoqda.

³ Rasmiy ma‘lumotlar asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Unumli bandlik – bu qonunchilikda taqiqlanmagan, o‘zining ishlab chiqarish va ijodiy mehnatga doir qobiliyatlaridan foydalangan holda o‘zi va qaramog‘idagilar uchun milliy kambag‘allik chegarasidan yuqori darajadagi iste‘mol uchun kafolatli mehnat daromadi keltiradigan faoliyatdir.

Bugungi kunda o‘zini o‘zi band qilgan shaxslarning barchasi mehnat daromadi o‘zi va qaramog‘idagilar uchun milliy kambag‘allik chegarasidan yuqori darajadagi iste‘mol uchun kafolatli mehnat daromadi keltirmoqdamiz?! Buning uchun o‘zini o‘zi band qilish faoliyat turlari mavsumiy, huquqiy, tashkiliy, ma‘muriy, ijtimoiy va iqtisodiy jihatlar bo‘yicha chuqur ilmiy o‘rganilishi, asosli tahlillar va zaif bandlikdan unumli bandlikka o‘tish mexanizmlari joriy etilishi lozim.

XULOSA VA TAVSIYALAR

O‘zini o‘zi band qilish aholi uchun qo‘shimcha ish o‘rinlari yaratish bilan birga, rasmiy ish joyiga kirish imkoniyati cheklangan qatlamlar uchun ijtimoiy muhofaza vositasi hamdir. Bu orqali ayollar, yoshlar va kam ta‘minlangan aholi qatlamlari mehnat bozoriga jalb qilinadi. Biroq, ushbu toifada mehnat shartnomalari, ijtimoiy kafolatlar va kasbiy malaka rivojlanishi yetarli emasligi ularning mehnat huquqlarini to‘liq himoya qilish imkoniyatini cheklab qo‘yadi. Shuning uchun o‘zini o‘zi band qilish tizimini faqat statistik o‘sish nuqtai nazaridan emas, balki uning ijtimoiy samaradorligi va aholining turmush darajasiga ta‘siri orqali baholash muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekistonda norasmiy ish bilan band aholi qatlamini rasmiy bandlikka o‘tkazish, hufiyona tadbirkorlikni shaffof va ochiqlikka olib chiqish islohotlar markazidagi dolzarb vazifalar yechimi izlanayotgan bir paytda, davlat dasturlari va maqsadli strategik yo‘nalishlarda o‘zini o‘zi band qilish mexanizmlari faolligini ta‘minlash ham juda dolzarb masalaga aylanib bormoqda.

Umuman olganda, 2020-2025-yillar davomida o‘zini o‘zi band qilganlar soni keskin o‘sishi iqtisodiyotda muhim tendensiya sifatida namoyon bo‘ldi. Bu bir tomondan aholiga qonuniy ishlash imkoniyatlari yaratilayotganini ko‘rsatsa, ikkinchi tomondan, mehnat bozorida norasmiylikdan rasmiylashtirish jarayonining kuchayganini anglatadi.

Zero, yakka tartibdagi tadbirkorlar va o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar uchun 2030-yil 31-dekabrga qadar maxsus huquqiy rejim joriy etilishi, hamda ularni davlat ro‘yxatidan o‘tkazishdan tortib hisobotni topshirishgacha bo‘lgan barcha asosiy xizmatlarni birlashtiruvchi integratsiyalashgan raqamli platformalar yaratilishi ko‘zda tutilgan [11].

Shu orqali o‘zini o‘zi band qilish nafaqat ishsizlikni kamaytirish, balki aholi farovonligini oshirish va iqtisodiy o‘sishni ta‘minlashning muhim omiliga aylanishi mumkin. Lekin kelgusida ushbu o‘sishni barqaror rivojlanishga aylantirish uchun kasbiy malaka oshirish, ijtimoiy himoya mexanizmlarini kengaytirish va xizmat ko‘rsatish sohaslarida sifat ko‘rsatkichlarini oshirish talab etiladi.

Ayni kunda respublikada 4,5 mln.ga yaqin shaxs o‘zini o‘zi band qilgan bo‘lib, 104 ta faoliyat turi doirasidan ish bilan band. O‘zini o‘zi band qilgan shaxslar bandligini zaiflikdan unumlilik tamoyillariga asoslanishi quyidagilarga bog‘liq:

Birinchidan, zaif bandlik mehnat bozorida yashirin kambag‘allikni kuchaytiradi, shu bois undan unumli bandlikka imkon qadar tezroq o‘tish ijtimoiy barqarorlik uchun muhim hisoblanadi.

Ikkinchidan, unumli bandlik inson kapitaliga investitsiya qilish va mehnat unumdorligini oshirish orqali amalga oshiriladi. Kasbiy qayta tayyorlash va malaka oshirish dasturlari orqali ishchilarni yangi texnologiyalar talab qiladigan sohalarga yo‘naltirish zarur. Shunday ekan, o‘zini o‘zi band qilgan shaxslarning maxsus platformalar orqali faoliyati sohasi bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini oshirib borishga shart-sharoitlar yaratish lozim.

Uchinchidan, norasmiy bandlikni qisqartirishda nafaqat o‘zini o‘zi band qilganlar, balki oilaviy va yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyatini ham “soya”dan chiqishini rag‘batlantirish choralarini ko‘rish lozim. Bu norasmiy sektorda band shaxslarni rasmiylashtirishni ta‘minlash o‘z navbatida ularni ijtimoiy himoya tizimiga bevosita kirishiga va zaif bandlikni qisqartirishga asos bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida”ga Farmoni, 11.09.2023 yildagi PF-158-son. Manba: <https://lex.uz/ru/docs/6600413>
2. ILO (2010). Global Employment Trends. Geneva: International Labour Office. URL: https://www.ilo.org/empelm/pubs/WCMS_120471/lang-en/index.htm
3. ILO (2013). Guide to the Millennium Development Goals Employment Indicators: Including the Full Decent Work Indicator Set. Geneva: International Labour Office. URL: https://www.ilo.org/employment/Whatwedo/Publications/WCMS_110511/lang-en/index.htm
4. T.Gindling, D.Newhouse. Self-Employment in the Developing World. World Development. Volume 56, April 2014, Pages 313-331. URL: <https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S0305750X13000727>

5. M.Chen, X.Huang, J.Cheng, Z.Tang, G.Huang. Urbanization and vulnerable employment: Empirical evidence from 163 countries in 1991–2019. *Cities*, Volume 135, April 2023, 104208. URL: <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S0264275123000203>
6. S.Yerrabati. Does vulnerable employment alleviate poverty in developing countries? *Economic Modelling*. Volume 116, November 2022, 106043. URL: <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S0264999322002802>
7. M.Binder. Entrepreneurial worries: Self-employment and potential loss of well-being // *Journal of Economic Psychology*. Volume 105, December 2024, 102773/. URL: <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S0167487024000813>
8. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining qarori, 10.07.2024 yildagi SQ-949-IV-son. Manba: <https://lex.uz/uz/docs/7048925>
9. M.Оқбоева. Тошкент кўчаларида “soliq” дастури орқали ўзини ўзи банд қилишни сўровчилар пайдо бўлди. URL: <https://www.gazeta.uz/uz/2025/08/18/self-employed/>
10. M.Karimjonov. O‘zini o‘zi band qilish qanday amalga oshiriladi? // «Xabar.uz» axborot-tahliliy portali. URL: <https://www.xabar.uz/mahalliy/ozini-oz-band-qilish-qanday-amalga-oshiriladi>
11. Yakka tartibdagi tadbirkorlar va o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar uchun maxsus huquqiy rejim joriy etiladi. URL: <https://president.uz/oz/lists/view/8375>



**TOSHKENT DAVLAT
IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

IV GLOBAL VA MILLIY IQTISODIYOT TRENDLARI: “O‘ZBEKISTON – 2030” STRATEGIYASI FORUMI

YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT

Ilmiy elektron jurnal

(MAXSUS SON)

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o‘g‘li

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

TASHKENT STATE
UNIVERSITY OF ECONOMICS

23-24

OCTOBER
2030

1st CONFERENCE:
DIRECTIONS FOR ENSURING
SUSTAINABLE ECONOMIC
GROWTH IN THE CONTEXT OF
TRANSITION TO A GREEN ECONOMY

23-24
OCTOBER
2025

3RD CONFERENCE:
MACHINE LEARNING AND ARTIFICIAL INTELLIGENCE:
A NEW APPROACH TO ECONOMETRIC ANALYSIS

CONFERENCE "GLOBAL
AND NATIONAL ECONOMIC
TRENDS"

UZBEKISTAN
STRATEGY
23-24 OCTOBER

- ARTIFICIAL INTELLIGENCE
AND DIGITAL TECHNOLOGIES
- ECONOMETRICS AND
BUSINESS ANALYTICS
- DATA SCIENCE (DATABASES)
- DIGITAL GOVERNMENT
- DIGITAL TRANSFORMATION
- ECONOMIC STATISTICS
- QUANTITATIVE MEASUREMENT
OF THE ECONOMY

2nd CONFERENCE:
BANKING AND
FINANCIAL SYSTEM AND
DIRECTIONS FOR DEVELOPING
THE PRIVATE SECTOR

23-24 2025
OCTOBER

- Makroiqtisodiy barqarorlik
- Yashil iqtisodiyotda
mehnat bozori
- Jahon iqtisodiyoti va xalqaro
iqtisodiy munosabatlar
- Yashil investitsiya va kreditlash
- Yashil texnologiyalar
- Eko turizm
- Yashil innovatsiyalar

СТРАТЕГИЯ
«УЗБЕКИСТАН – 2030»

23-24 2025
OCTOBER

- Makroiqtisodiy barqarorlik
- Yashil iqtisodiyotda
mehnat bozori
- Jahon iqtisodiyoti va xalqaro
iqtisodiy munosabatlar
- Yashil investitsiya va kreditlash
- Yashil texnologiyalar
- Eko turizm
- Yashil innovatsiyalar

strategy2025.tsue.uz

YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH
SHAROITIDA BARQAROR IQTISODIY
O'SISHNI TA'MINLASH YO'NALISHLARI

2030

<https://strategy2025.tsue.uz/>

TASHKENT STATE UNIVERSITY OF ECONOMICS ФОРУМ UZBEKISTAN
STRATEGY



ISSN: 2992-8982

Elektron pochta: sq1141983@gmail.com

Telefon: +998 93 124 57 11

Sayt: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Telegram: https://t.me/taraqqiyot_va_talim_uz

ISBN 978-9910-8110-8-1



9 789910 811081

CONFERENCE "GLOBAL
AND NATIONAL ECONOMIC
TRENDS"

1st CONFERENCE:
DIRECTIONS FOR ENSURING
SUSTAINABLE ECONOMIC
GROWTH IN THE CONTEXT OF
TRANSITION TO A GREEN ECONOMY

2030
UZBEKISTAN
STRATEGY

BANK-MOLIYA TIZIMI
VA XUSUSIY SEKTORNI
RIVOJLANTIRISH
YO'NALISHLARI